



SOME ASPECTS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE LIFE OF REPRESENTATIVES OF THE ASHTARKHANI DYNASTY AND THE MANIFESTATIONS OF ART

Karimjon Nasrullayev

PhD student

National University of Uzbekistan

Uzbekistan, Namangan

ABOUT ARTICLE

Key words: Art of music, calligraphy, book art, miniatures, portrait art, Imamquli Khan, mural paintings, Abdulaziz Khan, Subhonquli Khan, Reza Abbasi, Mirali Khiravi, Muhammad Muqum, Khoja Yodgor, Darvesh Ali.

Received: 29.10.24

Accepted: 31.10.24

Published: 02.11.24

Abstract: This article discusses the state of art during the reign of the Ashtar Khan rulers in the Bukhara Khanate, the relationship between artists and the Ashtar Khan rulers, as well as the development of fine art, calligraphy and literature. The article also describes the history of music art in Bukhara in the XVII-XVIII centuries.

ASHTARXONIY SULOLA VAKILLARI HAYOTINING SAN'AT NAMOYONDALARI BILAN BOG'LIQLIGINING AYRIM JIHLARI

Karimjon Nasrullayev

doktorant

O'zbekiston Milliy universiteti

O'zbekiston, Namangan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Musiqa san'ati, xattotlik, kitobot san'ati, miniatura, portret san'ati, Imomqulixon, devoriy suratlar, Abdulazizxon, Subhonqulixon, Rizo Abbosiy, Mirali Xiraviy, Muhammad Muqum, Xo'ja Yodgor, Darvesh Ali.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniy hukmdorlar davrida san'at sohasining ahvoli, san'at namoyondalarining ashtarxoniy hukmdorlar bilan munosabatlari, shuningdek, tas'viriy san'at, xattotlik va kitobot san'atining rivoji haqida fikr yuritilgan. Maqolada XVII-XVIII asrlarda Buxorodagi musiqa san'ati tarixi ham bayon etilgan.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ СВЯЗИ ЖИЗНИ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ АШТАРХАНИ И ПРОЯВЛЕНИЙ ИСКУССТВА

Каримджон Насруллаев

докторант

Национальный университет Узбекистана

Узбекистан, Наманган

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Искусство музыки, каллиграфия, книжное искусство, миниатюра, портретное искусство, Имамкули Хан, фрески, Абдулазиз Хан, Субхонкули Хан, Реза Аббаси, Мирали Хирави, Мухаммад Мукум, Ходжа Ёдгор, Дарвеш Али.

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние искусства в период правления правителей Аштар-хана в Бухарском ханстве, взаимоотношения художников и правителей Аштар-хана, а также развитие изобразительного искусства, каллиграфии и литературы. В статье также описывается история музыкального искусства Бухары в XVII-XVIII веках.

Ashtarxoniy hukmdorlar nafaqat ilm-fan va madaniyat, balki san'at namoyondalarining ijodiy faoliyatlariga ham yuksak baho berganlar. Bu davrda Buxoro xonligida san'atning miniatura, xattotlik va boshqa sohalari rivoj topadi. Masalan, bu davrdagi Buxoro xonligidagi miniatura san'atiga Eron rassomchilik maktabi ham katta ta'sir ko'rsatgan. Eronda bu sohada asosan diniy, dunyoviy va falsafiy g'oyalarni, tarixiy voqealarni aks ettirish an'anaga aylangan edi.

Bu an'analarni Eronning Sheroz, Yazd, Kazvin, Isfaxon kabi miniatura san'ati maktablari rivojlantirgan. Masalan, Isfaxon miniatura maktabiga iste'dodli rassom Rizo Abbosiy (1565-1635) rahbarlik qilardi. Bu davrda miniatura san'ati kitobat san'atining bir qimi bo'lmay balki alohida san'at janiriga aylanadi. Davrning mashhur rassomlari Muin Musavvir, Shofiy Abbosiy, Pirmuhammad al-Xofiz, Afzal Xusayniy, Muhammad Qosim kabi mashhur mo'yqalam sohiblari siyosiy mavzulardagi asarlar va partiretlar yaratganlar. Xuddi shunday mazmundagi asarlardan biri Eronning Isfaxon shahridagi Chixil Sutun saroyidagi ikkita devoriy surat alohida ahamiyatga egadir. Ushbu saroyda Eron shohi Abbas II farmoni bilan XVII asrning 50-yillardan boshlab, siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi devoriy suratlar yaratila boshlangan. Masalan, Shox Abbas I va Valimuhammadxon, Shox Abbas II va Nodir Muhammadxonning shoxona qabul marosimi ifdolanagan freskalar shular jumlasidandir. Eron tasviriy san'ati bo'yicha muatxassis hisoblangan professor Syuzan Babienining ma'lumot berishicha, ushbu devoriy suratlar ikki xil uslubda yaratilgan. Birinchisi, Shox Abbas I davridagi sharq miniatyrasiga xos an'anaviy usulda XVII asr o'rtalari uchun xarakterli hisoblangan g'arb tasviriy san'at ta'sirida uyg'unlashishidir.

Mazkur devoriy surat tahlil qilinganda uning muallifi bir kishi emas balki, bir necha musavvirlar ekanligini bilishimiz mumkin. Unda saroy turmush tarzi, tantanali saroy qabul

marosimlari va sharq mexmonnovvozlilik odobi ifodalangan. Asarda voqelik syujeti Eron shohi Abbas I tasviridan boshlanadi va Buxoro hukmdori, uning amaldorlari, sozanda va raqqosalar bilan tugallanadi. Ushbu jixatddan bu minatura O'rta Osiy miniatura san'atiga mutanossib ekanligini ko'rish mumkin.

Ikkinchi devoriy suratda, XVII asr o'rtalarilagi voqelar ifodalangan. Unda 1646-yili Eron shohi Abbas II va Buxoro hukmdori Nodir Muhammadxonning uchrashuvi aks ettirilgan. Uchrashuvdan maqsad Eron va Buxoro xonligi o'rtasidagi ittifoqchilik shartnomasini imzolashdan iborat edi. Ushbu san'at namunasida ellikka yaqin obrazlar tasvirlangan. Har ikkala suratda barcha ishtirokchilar saroy odobi qonun-qoidasiga ko'ra, egallagan mavqe va maqomiga ko'ra joylashtirilgan.

Buxoro xonligida ham xattotlik san'atining bir nechta maktablari mavjud bo'lgan. Masalan, Mirali Xiraviy, Mir Ubayd Buxoriy, Mir Husayn Ko'lankiy Buxoriy kabilar Buxoro xattotlik maktabining yirik namoyondalari hisoblanadilar. Ushbu shaxslar Buxorodagi eng mashhur asarlarni yaratgan xattotlar hisoblanishadi. Xusuan, Buxoro xoni Abdulazizxon (1645-1685) hukmronligi davrida mashhur shoir Hofiz Sheroziy devonining Hoji Yodgor tomonidan ko'chirilgan nusxasi Eron davlati hukmdori shoh Sulaymon Safiyga sovg'a sifatida jo'natiladi. Eron hukmdori sovg'ani ko'rib juda sevinadi va "Bir necha mamlakat tuhfasiga teng xazina" deya sovg'aga baho bergan ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan davr xattotlik san'ati namoyondalari yaratgan asarlar shu darajada mukammal va nafis ishlenganki, uni boshqa davlat hukmdorlariga sovg'a sifatida jo'natishgan. Eron hukmdorining unga bergan bahosi esa uning naqadar qiymatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ashtarxoniylar davrida hukmdorlar nafaqat ilm-fan namoyondolariga, balki, musavvir va xattotlarga ham yaxshi munosabatda bo'lgan. Masalan, Muhammad Muqum (XVIII asr) ashtarxoniy Abdulazizxon va Subhoqulixon kutubxonalarida ijod qilgan musavvirlardan biri. U o'z ijod na'munalarida inson tasviriga alohida e'tibor bergan, uning asarlari tasvirlarning nafis ishlanishi, qiyofalarning ifodaliligi va kompazitsiyalarning mutanosibliigi bilan ajralib turgan. Xo'ja Gado, Mulla Behzod va Avaz Muhammad kabi musavvirlar, shuningdek, Mulla Mir Munshiy, Mirzo Barqiy, Ibn Arabshoh kabi xattotlar bilan birgalikda faoliyat yuritgan. U Nizomiy Ganjaviyning "Hamsa" (1669-yil), Firdavsiyning "Shohnoma"(1664) kabi asarlarni badiiy bezashda, shu bilan birgalikda, Firdavsiyning "Shohnoma", "Bayonnoma", "Narimonnoma", "Faramuznoma" kabi qo'lyozmalarga rasmlar ishlashda faol qatnashgan.

Bu davr partret san'atiga ulan hissa qo'shgan miniaturachilardan biri Xo'ja Muhammad Musavir bo'lib, u 1642-yili Imomqulixon partretini chizgan. Imomqulixonning aynan unga o'z rasmini chizdirish, xonning Xo'ja Muhammadga munosabati ijobiy ekanligini bildiradi.

Shuningdek, musavvirlik san'atiga Subhonqulixon ham alohida e'tibor bergan. Masalan, uning topshirig'i bilan qayta yozilgan odam anatomiyasiga bag'ishlangan ilmiy risolada ajoyib tasvirlar keltirilgan. Ushbu asarda 6 ta tasvirni Abdulg'ofur ismli musavvir chizgan. Ularda asosan inson sikileti, asab tizimi va tananing boshqa qismlari tasvirlangan. XVII asrda kitoblarni loyihalash va xattotlik san'ati yuksak darajada rivojlangan edi. Bu davrda Buxoro o'zining mashhur xattotlari bilan ham mashhur edi. Masalan, bu davrning eng mashhur xattotlaridan biri Xo'ja Yodgor edi. U o'zining iqtidori tufayli Buxoro xoni Abdulazizxonning saroyida xizmat qilgan. Bundan tashqari "Muxid at tavorix" asarining muallifi Muhammad Amin ibn Muhammad Zamoniyy Buxoriy Sufyoniy o'z asarida Buxoro xonlarining saroyida faoliyat ko'rsatgan mashhur xattotlarning nomlarini ham keltirib o'tadi. Masalan, Mavlono Mirzo Barkiy (yoki Mulla Barkiy), saroy kotibi lavozimida ishlagan Oxund mulla Mir Muhammad Munshiy, Xattotlik ustasi Mavlono Mulla Arabshoh kabi mashhur kotiblar Xoji Yodgorning shogirdlari bo'lgan.

Bu davr Buxoro xonligida musiqa san'ati ham rivojlandi. Bu rivojlanish shayboniylar sulolasi davrida boshlangan edi. Xususan, akademik M. Rahmonov, bu manbalarni ilmiy tadqiq qilgan kishi shunday yozadi: "Shayboniylar Buxoroga turli joylardan ijodkorlarni jalb etishda davom etganlar. Xullas, Hirotni qo'lga kiritgan Ubaydullaxonning vasiyatiga ko'ra mashhur hofiz Oxi Garavi Buxoroga keltirilib, u bu yerda maqom ijrochilari uchun vokal maktabini tashkil qilgan. Darvesh Alining yozishicha, Ahi Garavi maktabi tarbiyalanuvchilari orasida Movaraunnahrning turli viloyatlaridan Buxoroga kelgan hofiz Xoja Hamza Toshkandiy, Xoja Bobo Changi, Darvish Mahmudiy Andijoniy, Xofizi Ushshokiylar ham bo'lgan". Shuningdek, shayboniy Ubaydullaxon hukmronligi davrida Mavlono Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy "Musiqa haqida risola" nomli asar yozadi. Unda asosan, o'n ikkita maqom haqida ma'lumot beriladi. Mavlono Najmiddin musiqa ilmini rivojlantirish uchun katta kuch sarflaydi. U Buxoro va Samarqand shaharlarida maxsus musiqa ilmini o'rgatuvchi maktablar ochadi. Xoja Hasan Kavkabiyy, Boqiy Jarroh Buxoriy, Xoja Aliakbar Kanuniy, Xoja Hasan Nisor va boshqa mashhur bastakor, sozanda va xonandalarga ustoz bo'ldi.

XVI-XVII-asrlarda Buxoro madaniy hayoti chinakamiga yangi gullash davrini boshdan kechirdi. Xususan, Shayboniylar sulolasi (XVI asr), keyin Ashtarxoniylar (XVII asr) va Mang'itlar (XVIII – XX asr boshlari) davlatining poytaxti bo'lgan Buxoroning o'zidagina emas, balki bu hududning turli qismlarida ham madaniy hayotda sezilarli sakrash yuz berdi. Bizgacha yetib kelgan me'morchilik yodgorliklari, amaliy san'at namunalari buning dalilidir. Kitob san'ati va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan miniatyura san'ati rivojlandi: Buxoro miniatyura san'ati maktabi shakllandi. Xuddi shunday, musiqada mumtoz musiqa merosining eng yuqori shakli – Shashmakomning o'ziga xos ijro maktabi shakllandi.

“Ashtarxoniylar o‘z saroylarida sozanda va san’atkorlarni ham saqlaganlar. Boqiy Muhammad Bahodurxon (1599-1605) saroyida Mavlono Payanda tabib, Mavlono Nosiriy, Mirzo Hoshim va boshqalar xizmat qilgan. Ashtarxoniy Imomqulixon (1611-1642)ning Buxoro saroyida ajoyib xonanda, bastakor va musiqa nazariyotchisi Darvesh Alining ijodiy faoliyati bo‘lib o‘tdi”.

Imomqulixon davrida (1611–1642) yashab o‘tgan saroy sozandasi va musiqashunos Darvesh Ali Changiyning “Musiqqa haqida risola”da ham o‘n ikki maqomga asosiy o‘rin berilgan. Shunday qilib, aniq tarixiy faktlar shuni ko‘rsatadiki, XVI-XVII asrlarda. Buxoro xonlarining saroy musiqa muhitida o‘n ikki maqom yetakchi o‘rinni egalladi.

Musiqashunosligimizda Darvesh Ali Changiy faoliyati ancha keng o‘rganilgan. F.Karamatli, I.Radjabov, D.Rashidova, O.Ibrohimov, O.Matyoqubov va boshqalar kabi olimlar musiqa tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus maqola yoki tadqiqotlarida bu atoqli olimning hissasini chuqur ta’kidlab o‘tishadi. Sharqshunos olim A. A. Semenov Darvesh Ali risolasini qisqartirilgan holda rus tiliga tarjima qilgan va u olim tomonidan keng so‘zboshi bilan nashr etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligining ashtarxoniylar sulolasi davrida tasviriy san’at va musiqa san’ati o‘ziga xos darajada rivoj topdi. Bu davrda tasviriy san’atning portret janri rivojini kuzatildi. Musiqqa sohasida esa saroyda o‘n maqom yetakchi o‘rinni egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сангирова Д. Исфохон рассомчилик мактаби. Мозийдан садо. Илмий-амалий, маънавий-маърифий журнал. – Тошкент: Силвер Стар Принт, 2017.
2. Мо‘jiza bag‘ridagi mo‘jiza yoxud Buxoro xattotlik san’atini qayta tiklash yo‘lida muqim qadam tashlandi // <https://xs.uz/uz/post/mozhiza-bagridagi-mozhiza-yokhud-bukhoro-khattotlik-sanatini-qajta-tiklash-jolida-muhim-qadam-tashlandi>
3. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, inv. № 3463
4. Раҳмонов, М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача ўзбек театр маданиятининг тараққиёт йўллари). – Тошкент: Фан, 1968.
5. Тўраев, Ф. Ж. Бухоро муғаннийлари. – Тошкент: Фан, 2008.
6. Бухоро – Шарқ дурдонаси. – Тошкент: Шарқ, 1998.
7. Урмавий, С. Китобул-адвор. – Тошкент: СИТИ кутубхонаси.
8. Семёнов, А. А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII в.). – Ташент: Тип. № 1, 1938.